

Oriental Journal of Education



PROFESSIONAL TRAINING OF TOURISM MANAGERS IN UZBEKISTAN

Rahima Kasimovna Yusupova

Associate Professor of the Department of Culture and Art Management

Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

E-mail: yusupovar1964@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: tourism industry, tourism manager, tourism competence, professional training, tourism company, qualified personnel.

Received: 27.09.25**Accepted:** 28.09.25**Published:** 29.09.25

Abstract: This article discusses the importance of professional training for tourism managers in Uzbekistan. It emphasizes that the professional development of tourism managers should be enhanced not only through theoretical knowledge but also through practical skills. Special attention is given to the professional competencies required for effectively organizing the activities of tourism managers. Additionally, the article analyzes the growing demand for specialists in the sector as it continues to develop. The need for tourism managers to have up-to-date knowledge, as well as to adopt innovative and technological approaches, is particularly emphasized.

O‘ZBEKISTONDA TURIZM MENEJERLARINING KASBIY TAYYORGARLIGI

Rahima Kasimovna Yusupova

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

“Madaniyat va san’at menejment” kafedrasi dosenti

E-mail: yusupovar1964@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: turizm sohasi, turizm menejeri, turistik salohiyat, kasbiy tayyorgarlik, turistik kompaniya, malakali kadrlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda turizm menejerlarining kasbiy tayyorgarligining ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Shu bilan birga, turizm menejerlarining kasbiy tayyorgarligini nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko‘nikmalar orqali ham oshirib borish zarurligi qayd etiladi. Ayniqsa, turizm menejerlarining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishda zarur bo‘lgan kasbiy malakalar, shuningdek, sohaning o‘sishi

bilan mutaxassislarga bo'lgan talabning oshish jarayonlari tahlil qilinadi. Turizm menejerlarining zamonaviy ma'lumotlarga asoslangan, shuningdek, innovatsion va texnologik yondashuvlarni o'zlashtirgan mutaxassislar bo'lishi lozimligiga alohida urg'u beriladi.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ПОДГОТОВКА МЕНЕДЖЕРОВ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Раҳима Касимовна Юсупова

Доцент кафедры «менеджмента культуры и искусства»

Государственный институт искусств и культуры Ўзбекистана

E-mail: yusupovar1964@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	туристическая индустрия, менеджер по туризму, туристическая компетентность, профессиональная подготовка, туристическая компания, квалифицированные кадры.	Аннотация:	В данной статье рассматривается важность профессиональной подготовки менеджеров туризма в Узбекистане. Отмечается, что повышение профессиональной подготовки менеджеров туризма должно происходить не только через теоретические знания, но и через практические навыки. Особое внимание уделяется необходимым профессиональным компетенциям для эффективной организации деятельности менеджеров туризма. Также анализируется процесс роста спроса на специалистов в связи с развитием отрасли. Подчеркивается необходимость того, чтобы менеджеры туризма обладали современными знаниями, а также осваивали инновационные и технологические подходы в своей профессиональной деятельности.
------------------------	---	-------------------	---

Kirish. O'zbekistonda turizm menejerlarining kasbiy tayyorgarligi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanmoqda. Davlatimizning turizmni rivojlantirishga bo'lgan qiziqishi va e'tibori, shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganish va mamlakatimizda sayyohlikni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan chora-tadbirlar bu sohaning o'sishiga katta hissa qo'shmoqda. Turizm menejerlarining kasbiy tayyorgarligi nafaqat ularning nazariy bilimlarga ega ekanligi, shu bilan birga amaliy ko'nikmalariga ham bog'liq ekanligini inobatga olib, OTMdagi turizm sohasiga yetuk mutaxassislar yetkazib beruvchi ta'lim yo'nalishi faoliyatlari yanada taraqqiy eta boshladi.

Har yili mamlakatimizda turizm sohasida faoliyat yuritadigan firmalar soni ortib bormoqda. Turistik biznesda malakali kasbiy tayyorgarliksiz ishlash imkonsiz. Shu bilan birga, turistik

tashkilotlarning o'sishi bilan mutaxassis menejerlarga bo'lgan talab ham oshmoqda. Menejer har qanday tashkilotda, shu jumladan turistik tashkilotda, yetakchi va boshqaruvchi bo'lgan shaxsdir. Turizm menejeri – bu turistik tashkilot xodimi bo'lib, unga mijozning mamlakat ichidagi yoki tashqarisidagi sayohatini ta'minlash mas'uliyati yuklanadi, shuningdek, barcha zarur axborot va hujjat ishlarini bajarish majburiyati ham unning zimmasidadir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Shuni ta'kidlash lozimki, turistik biznes sohasidagi menejerlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish, ushbu sohadagi mutaxassislarda kasbiy faoliyatga yuqori va mustahkam moslashuvni ta'minlaydigan sifatning mavjud bo'lishini ham talab etadi. Mutaxassisning ish joyida kasbiy rivojlanib borishi uning mehnat samaradorligining ko'p jihatdan oliy ta'lim muassasasida o'z kasbiy faoliyatiga qanchalik moslashgan va moslashuvchan bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni u nafaqat nazariy bilimlarga emas, balki ularni real ish sharoitlarida mustaqil qo'llash ko'nikmalariga ham ega bo'lishi kerak. Turistik biznes sohasidagi mutaxassislikka qo'yiladigan jismoniy va ruhiy tayyorgarlik talablarining yuqori darajada bo'lishi, oliy o'quv yurtlarida yuqori malakali tayyorgarlik jarayonini tashkil etishni dolzarb va muhim vazifa qilib qo'yadi.

Sohadagi nazariy bilimlar, masalan, turizm qonunchiligi, marketing, mehmondo'stlik xizmatlari va boshqa sohalarda bilimlarga ega bo'lish ularning kasbiy faoliyatini mustahkamlaydi. Biroq, amaliy ko'nikmalar, ya'ni mijozlar bilan ishlash, turistik mahsulotlarni yaratish, sayohatlarni rejalashtirish va tashkil etish kabi kundalik faoliyatda zarur bo'ladigan ko'nikmalarni o'rgatish ham juda muhimdir. Shu nuqtaiy nazardan olib qaraganda, nazariy va amaliy ko'nikmalarni oshirishning ahamiyati turizm menejeri uchun g'oyat kattadir. Turizm menejerlari o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash orqali, turizm tashkilotlarining samarali ishlashini ta'minlaydi. Bu, o'z navbatida, turizm sohasining umumiy rivojlanishiga yordam beradi. Shunonchi, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan menejerlar mijozlarga eng yaxshi xizmatni taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu, turizm sohasining raqobatbardoshligini oshiradi. Mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va rivojlanish dasturlarining natijasida turizm menejerlariga talab so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Endilikda O'zbekistonda turizm menejerlarining kasbiy tayyorgarligini oshirish, xalqaro darajada amaliy tajribalarga ega bo'lish singari vazifalar soha mutaxassislari oldiga qo'yildi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekistonda turizm menejerlarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda ko'proq sohaga inovatsiyalarni joriy etish zarur. Zamonaviy turizmga yangi texnologiyalar va innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Menejerlar bu yangiliklarni o'z ishlarida qo'llay olishlari uchun nazariy bilimlar bilan birga, amaliy ko'nikmalarni doimiy ravishda oshirib borishlari kerak. O'zbekistonda turizm menejerlarining malakasi yuqori bo'lsa, ular nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro maydonda ham muvaffaqiyatli ishlay olishadi. Bu turizmni jahon miqyosida

tanitishda muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, turizm menejerlarining nazariy va amaliy tayyorgarligini oshirish, ularning kasbiy mahoratini yanada rivojlantirish va turizm sohasining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda turizm eng ko'p mehnat talab qiladigan sohalardan biridir.

U butun dunyo bo'ylab 75 milliondan ortiq ish o'rinlarini ta'minlaydi. Har o'n ikkinchi odam turizm va mehmondo'stlik sohasida ishlaydi. Turizm menejeri juda keng tushunchadir. Turizm menejeri katta turistik kompaniyaning rahbari bo'lishi mumkin, yoki turistik firmada xodim sifatida oddiy chiptalar bron qilish bilan shug'ullanish mumkin. Ikkala holatda ham mutaxassis o'zini faxr bilan menejer deb atashi mumkin, ammo ularning majburiyatlari va mas'uliyat darajasi mutlaqo boshqa-boshqa bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Turizm menejeri operatorlik profili bo'yicha tashkilotda ishlayotgan shaxs, turistik agentliklar bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yishi, sayohatlar va chiptalar bo'yicha buyurtmalarni kompyuterli bronlash tizimlarida bron qilishni amalga oshirishi, xizmat ko'rsatuvchilar bilan ishlashni bilishi, shuningdek, turistik mahsulotni shakllantirish va targ'ib qilishda malakaga ega bo'lishi kerak. Kasbiy yo'nalishdagi vazifalar o'quv fanining mazmunini va kelajakdagi kasbiy faoliyatni aks ettirishi lozim. Shuni ta'kidlash kerakki, bu vazifalar fan bo'yicha bir yoki bir nechta mavzularni, ba'zan esa bakalavriat ta'lim yo'nalishining bir nechta maxsus fanlarini ham o'z ichiga olishi mumkin. Turistik oliy ta'lim muassasasida kompetensiyalarga asoslangan yondashuvni amalga oshirish turizm menejerining tipik kasbiy vazifalarini ajratishga imkon beradi:

- turistik mahsulotlarni shakllantirish;
- turistik xizmatlar va mahsulotlarni reklama qilish va targ'ibotini olib borish;
- turistik mahsulotlarni sotish.

Har qanday kasbiy yo'nalishdagi vazifani ishlab chiqishning boshlang'ich bosqichida o'qituvchi hal qilinishi kerak bo'lgan maqsadni aniqlaydi. Vazifani shunday shakllantirish muhimki, uning yechimi jarayoni yangi bilimlarni sifatli o'zlashtirish, ko'nikmalarni mustahkamlash, kasbiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, shuningdek, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi kerak.

Prezidentning "Turizm – bu ham investitsiya, ham eksport, ham yangi ish o'rinlari va kambag'allikni qisqartirish degani. Shuning uchun har bir hududda bu sohaga jiddiy e'tibor qaratib, ko'proq sayyohlarni jalb etish kerak", degan so'zlari zahirida chuqur ma'no va ulkan mas'uliyat borligini anglash fursati yetdi [3:6].

Mamlakatimizda soha rivojiga yo'naltirilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. Xalqaro va mahalliy tadbirlar keng ko'lamda tashkil etila boshladi, sohaga ixtisoslashtirilgan yangi ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Sayyohlar oqimining oshishi, yangi turizm

mahsulotlari ishlab chiqarilishi, yangicha yo'nalishlar rivojlantirilishi, infratuzilmani takomillashtirishga oid sa'y-harakatlar, xorijiy investorlar oqimi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoq vakillarining tashrifi kabi yangilanishlar yurtimizning nufuzli xalqaro reytinglarda turizm uchun eng munosib mamlakat sifatida yuqori o'rinlarga ko'tarilishiga zamin yaratdi.

Prezidentimizning 2023-yil 26-apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, amaliyotda ilmiy yondashuvni oshirish, nazariya bilan amaliyot integratsiyasini yo'lga qo'yish maqsadida mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 11 ta oliy ta'lim muassasasi hamda hududlardagi 30 ta tuman hokimligi hamkorligida sayyohlik va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, yangi turizm kontentlarini yaratishga qaratilgan "yo'l xaritalari" ishlab chiqilib, tegishli vazifalar bajarilmoqda. Jumladan, o'tgan davrda tuman, shaharlar turizm salohiyati, hudud va tarixi to'g'risida xorijiy tillarda jami 1319 ta, jumladan, 457 ta axborot, 288 ta video hamda 574 ta foto kontentlar yaratildi. Oliygo'lar tomonidan hozirgacha 16 ta ilmiy anjuman va forumlar, 8 ta xalqaro ilmiy konferensiya, 6 ta etnofestival, 7 ta yozgi va qishki lager hamda 32 ta seminar-trening tashkil etildi. Hozirga qadar ushbu tadbirlar natijasida tumanlarga 8 mingdan ziyod xorijlik va 147 mingga yaqin mahalliy sayyoh jalb qilindi.

Turizm sohasining o'sib borayotgan bir paytda, ushbu sohada malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj ham ortmoqda. Talabning oshirishining asosiy omillarining biri turizmning iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri ekanligidir. Yurtimizda sayyohlikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yangi turistik yo'nalishlarni ochish, infratuzilmani yaxshilash kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi turizm menejerlariga bo'lgan talabning oshirishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, O'zbekistonning jahon turizm bozorida o'z o'rnini mustahkamlashga qaratilgan harakatlari, shu jumladan, xalqaro konferensiyalar, forumlar va madaniy almashinuvlar, turizm menejerlarining kasbiy malakasi xalqaro standartlarga mos kelishi zarurligini talab qiladi. Nafaqat xalqaro ta'kidlash joiz bo'lsa, ichki turizmning o'sishi ham turizm menejerlariga bo'lgan talabni oshiradi. O'zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirish, viloyatlar bo'yicha turistik yo'nalishlarni tashkil etish va mahalliy turlarni reklama qilishda malakali menejerlarga katta ehtiyoj sezilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida turizmga oid mutaxassislar tayyorlashning kengayishi oqibatida O'zbekistonning turizm sohasi bo'yicha oliy ta'limda malakali menejerlar tayyorlashga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bu sohadagi mutaxassislar yetishmasligi muammosini hal qilishda katta aqliy yechim bo'ldi.

"O'zbekiston tomoni dunyo sivilizatsiyalari kesishgan chorraha – ko'hna Samarqand shahrida "Ipak yo'li" turizm universitetini tashkil etish g'oyasini birgalikda amalga oshirishni taklif etadi, - degandi o'shanda Prezidentimiz. – Ushbu ta'lim dargohida turizm sohasidagi eng yetuk

mutaxassislar o'z bilimlari bilan o'rtoqlashishi, dunyoning ko'pgina mamlakatlaridagi yoshlar ta'lim olishi mumkin".

Xulosa va takliflar. O'zbekistonning boshqa ta'lim muassasalarida tatbiq etila boshlandi. Jumladan, Bolonya jarayoni modeli va kredit-modul tizimi ta'limda joriy etildi, o'qitiladigan fanlar soni besh yoki oltitaga qisqartirildi, 5 kunlik o'quv (talabalar uchun) va 5 kunlik ish (o'qituvchilar va xodimlar uchun) tizimiga o'tildi, darslar davomiyligi qisqartirilib (odatdagi 80 daqiqa o'rniga 50 daqiqa), amaliy mashg'ulotlar soni ko'paytirildi. O'quv jarayonida nazariy va amaliy tayyorgarlikni uyg'unlashtirishni nazarda tutuvchi dual ta'lim tizimi joriy qilindi. Tyutorlik tizimini (avval "edvayzing tizimi") yaratish o'z navbatida, o'qituvchilarni kuratorlik rolidan ozod qildi. Talabalar parlamenti tashkil etilib, unda ochiq va shaffof saylovlardan so'ng bir o'quv yili uchun talabalar orasidan prezident saylanadi. U keyinchalik madaniy-ma'rifiy faoliyat va talabalarni har tomonlama rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Губаницева АА. Профессиограмма менеджера индустрии туризма. Научно-методический журнал Физическое воспитание и спортивная тренировка. 2013(1):99.
2. Арсений Р. М., Киреева Ю. А. Роль профессионально ориентированных задач в формировании компетенций будущего менеджера по туризму. Вестник РМАТ, (3 (9)), 87-91. 2013.
3. Jalilov N. O'zbekistonning tashrif qog'ozi// gaz. XXI asr. 38 (984). – Toshkent.: Sharq. 2022.
4. Rustamov M.T. Milliy an'ana va urf-odatlarining turizm sohasi rivojida tutgan o'rni. // Inter education & global study. 2024. №9(1). B.122–128.
5. Eltazarov J. Turizm ta'limi "Flagman"i// Gaz. Zarafshon 64 (23.631)-son. – Samarqand.: Noshir lux MChJ bosmaxonasi. 2022. 4 b.
6. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. –T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 215-229 b.
7. Matyaqubov U. Xalqaro turizm: tajriba va amaliyot. O'quv-uslubiy majmua. – Urganch, 2017.
8. Yusupova R. "The role of culture and art in raising spiritual and educational immunity in youth." American journal of social science 2.4 (2024): 119-123.
9. Greg Richards. New directions for cultural tourism. Tourism market trends. 2003 edition. – p.137.
10. Fayziyev T, Mirzaraximov A. "Menejment fan va boshqaruv san'ati sifatida." Oriental Art and Culture 4.3 (2023): 251-254.